



ABDULLA SHER IJODIDA QRIM MAVZUSI

Mamasharipova Nodira Urazali qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Adabiyotshunoslik. Adabiyot nazariyasi yo'nalishi 2-bosqich magistri

mamasharipovanodira@gmail.com

Ilmiy rahbar: To'laboyev Olim Oltinovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Sher ijodida Qrim mavzusining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning 1980-yillarda yozilgan «Qrim dardlari» turkumi she'rlari asosida tarixiy xotira, milliy fojia, surgun va adolat masalalari poetik tafakkur nuqtayi nazaridan yoritiladi. Tadqiqotda adabiy-tarixiy, tipologik va matn tahlili usullari qo'llanadi.

Abstract. This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of the Crimean theme in the work of Abdulla Sher, one of the great figures of modern Uzbek poetry. Based on the poems of the poet in the series "Crimean Sorrows" written in the 1980s, the issues of historical memory, national tragedy, exile and justice are covered from the point of view of poetic thought. The research uses literary-historical, typological and textual analysis methods.

Kalit so'zlar: Abdulla Sher, Qrim mavzusi, qrimtatarlar, tarixiy xotira, surgun, poetik ballada.

Keywords: Abdulla Sher, Crimean theme, Crimean Tatars, historical memory, 22exile, poetic ballad.

XX asr oxiri o'zbek adabiyoti uchun tarixiy xotirani qayta anglash, taqiqlangan mavzularni badiiy ifodalash davri bo'ldi. Ayniqsa, sovet davri siyosiy zulmi, repressiyalar va butun xalqlarning surgun qilinishi masalasi adabiyotda tobora ochiq va dadil talqin etila boshladi. Ana shunday mavzulardan biri — Qrim va qrimtatarlar fojiasi Abdulla Sher ijodida markaziy badiiy konsepsiyaga aylanadi.



Abdulla Sherning Qrimda yozilgan va Qrimga bag'ishlangan she'rlari shoirning shaxsiy kuzatuvlari, tarixiy bilimlari hamda kuchli axloqiy pozitsiyasi bilan uyg'unlashgan holda yuzaga kelgan. Ushbu turkum she'rlar nafaqat estetik hodisa, balki milliy xotirani tiklash yo'lidagi muhim adabiy hujjat sifatida ham ahamiyatlidir.

Shoir uchun Qrim, avvalo, go'zal tabiat yoki tarixiy obidalar majmui emas, balki iztirob va xotira bilan sug'orilgan muqaddas makondir. "Qrim qayg'usi"¹ she'rida shoir savol orqali tarixga murojaat qiladi:

"Bu bog'ni o'stirgan qo'llar qayoqda?"

Bu uyni tiklagan bilaklar qani?"

Bu satrlar Qrim tuprog'ining haqiqiy egalari — qrimtatarlarning zo'ravonlik bilan yurtidan judo etilganini eslatadi. Tarixiy fakt sifatida ma'lumki, 1944-yil 18-mayda Stalin buyrug'i bilan qrimtatar xalqi ommaviy ravishda Markaziy Osiyoga surgun qilingan. Shoir ushbu fojiani faqat siyosiy hodisa sifatida emas, balki axloqiy jinoyat sifatida baholaydi.

Abdulla Sher Qrim mavzusini yoritishda tarixiy shaxslar obraziga murojaat qiladi. "Ikki o'q haqida ballada"² she'rida qrim-tatar yozuvchisi va jangchi Shomil Aladdin timsoli orqali ikki xil zulm — fashizm va stalinizm fojiasi ko'rsatiladi. Shoir shunday yozadi:

"Tanida bir emas, ikki o'q edi, -

Stalin yo'q edi, vatan yo'q edi!"

Bu yerda ikkinchi o'q — siyosiy xiyonat, millatga nisbatan tuhmat va surgun ramzidir. Shoir tarixiy haqiqatni badiiy umumlashtirish orqali totalitar tizim mohiyatini ochib beradi.

¹ Shoirning shaxsiy arxividan

² "Gul yillar, bulbul yillar". T. Gofur G'ulom nomidagi NMU, 2012. 179-B.



Shoir Qrim tog'lari, dengizi va osmonini tirik obraz sifatida tasvirlaydi. "Qrim tog'lari" ³she'rida tabiat vaqt va inson fojiasidan ustun bo'lgan abadiyat ramziga aylanadi:

"Asrab har bir giyoh-u toshni,
Tog'lar uchar yashirib dodni".

Bu misralarda tabiat sukuti — aytilmagan, lekin unutilmagan tarixiy doddir. Tabiat shoirda guvoh va xotira saqlovchi sifatida namoyon bo'ladi.

Abdulla Sher Qrim mavzusini ochishda ballada janridan unumli foydalanadi. "Qizil shalonlar haqida ballada" ⁴asari deportatsiya jarayonini epik ko'lamda tasvirlaydi. Shoir voqeani mayda tafsilotlar orqali dramatik cho'qqiga olib chiqadi:

"Shalonga bosdilar – butun... "

Bu satr butun xalq taqdirining bir necha soat ichida hal etilganini ko'rsatadi. Ballada janri shoirga tarixiy voqeani umumxalq fojiasi darajasida ifodalash imkonini beradi.

Abdulla Sher Qrim mavzusida betaraf kuzatuvchi emas, balki faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shoir sifatida namoyon bo'ladi. U o'quvchini befarqlikda ayblaydi:

"Biz kim edik? Biz endi kimmiz?
Bosh ko'tarib so'rmaymiz hatto...

Bu savollar faqat qrimtatarlar taqdiriga emas, balki butun insoniyat mas'uliyatiga qaratilgandi.

Mazkur maqolada adabiy-tarixiy va germeneytik tahlil usullari asos qilib olindi. Abdulla Sherning Qrimga bag'ishlangan she'rlari tarixiy kontekst bilan uzviy bog'liq holda o'rganildi. Shoir poetikasida makon (Qrim), vaqt (o'tmish–hozir–

³ "Abdulla Sher. "Gul yillar, bulbul yillar". T. Gofur G'ulom nomidagi NMU, 2012. 169-B

⁴ "Abdulla Sher. "Gul yillar, bulbul yillar". T. Gofur G'ulom nomidagi NMU, 2012. 174-B.



abadiyat) va subyekt (xalq, shoir, tarix) o‘zaro dialektik birlikda talqin qilinadi. Matnlar ichki semantik qatlamlar, ramziy obrazlar hamda janr xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Abdulla Sher ijodida Qrim mustamlaka xotirasining tirik timsolidir. Shoir Qrimni "tilsiz", "gung" holatda tasvirlaydi, bu esa zo‘ravonlik natijasida ovozi mahrum etilgan xalq ramzidir:

“Yot nomdan, yot so‘zdan, yot shovqinlardan
Gung bo‘lib qolgandek go‘yoki Qrim”.

Bu obraz postkolonial adabiyotdagi "sukutdagi makon" tushunchasi bilan hamohangdir. Qrim — gapira olmaydigan, biroq hamma narsani eslab turgan makondir.

1944-yilgi deportatsiya Abdulla Sher she‘riyatida markaziy tarixiy travma sifatida aks etadi. “Qizil shalonlar haqida ballada” asarida shoir deportatsiyani statistik yoki rasmiy ma‘lumotlar orqali emas, balki insoniy fojia sifatida ko‘rsatadi. Ayollar, bolalar, qariyalar taqdiri alohida dramatik urg‘u bilan beriladi.

“Shalonga bosdilar – butun xalq bandi!
Yigirma to‘rt soat – bari tamomdir”.

Bu satrlar tarixiy vaqtning siqilishi, inson umrining bir buyruq bilan barbod etilishini ifodalaydi.

Shoir Qrim tabiatini insoniy fojialarga qarshi qo‘yadi. Tog‘lar, dengiz va osmon — abadiyat timsollari bo‘lib, inson zulmi fonida sukut saqlaydi:

“Tog‘lar uchar kuylab quyoshni,
Ucha berar yig‘may qanotni”.

Tabiat bu yerda befarq emas, balki tarixni ichiga yutgan tirik xotiradir. Bu qarash ekologik xotira tushunchasi bilan hamohang keladi.

“Yig‘layotgan tosh” ⁵dostoni orqali Abdulla Sher Qrim xonligi davriga murojaat qiladi. Biroq bu romantik ideallashtirish emas, balki yo‘qotilgan

⁵ “Gul yillar, bulbul yillar”. T. Gofur G‘ulom nomidagi NMU, 2012. 336-B.



davlatchilik va madaniyatga bo'lgan sog'inchdir. Boqchasaroy, favvora, Garoylar obrazi tarixiy xotiraning estetik shakliga aylanadi.

Abdulla Sher Qrim mavzusida axloqiy hakam sifatida maydonga chiqadi. U jimlikni jinoyatga tenglashtiradi, tarix oldidagi javobgarlikni eslatadi:

“Lekin biz-chi, biz hanuz jimmiz,

Biz kim edik? Biz endi kimmiz?”

Bu savollar mustaqillik arafasidagi o'zbek ziyolilarining ichki iztirobini ham aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Sher ijodida Qrim mavzusi faqat bir xalq fojiasining badiiy ifodasi emas, balki XX asr totalitar tafakkuriga qarshi qo'yilgan axloqiy manifestdir. Shoir tarixni unutmaslikni, adolatni tiklashni va inson qadrini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu turkum she'rlar o'zbek adabiyotida tarixiy xotira poetikasining yuksak namunasi sifatida baholanishi lozim. Shoir ijodida Qrim mavzusi tarixiy xotirani tiklash, adolatni talab qilish va milliy hamdardlikni uyg'otish vazifasini bajaradi. Shoir Qrimni geografik makon emas, balki ma'naviy va axloqiy mezon sifatida talqin qiladi. Ushbu she'rlar bugungi kunda ham tarixiy haqiqatni anglash, totalitarizm oqibatlarini unutmaslik uchun muhim adabiy manba bo'lib qolmoqda.

Abdulla Sherning Qrim dardlari o'zbek adabiyotida siyosiy jasorat, badiiy mukammallik va insonparvarlikning yorqin namunasi sifatida alohida o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Sher. Gul yillar, bulbul yillar. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012. 169-336-b.
2. Ünver Sel. Kırım ve Kırım Türkleri. Ankara: Kırım dergisi, 1997. 121-129-b.
3. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/tarixiy-sana/ozbek-sherida-qrim-dardi.html#page>